

**IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA RAQOBAT MUHITINI
TA`MINLASHDA KICHIK BIZNES SUB`EKTLARI FAOLIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI**

Nematova Shaxlo Egamgamberdievna

Farg`ona davlat universiteti, Iqtisodiyot va servis kafedrasida o`qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rni, milliy ishlab chiqarishdagi ulushi, davlat yomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari va rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.*

Kalit so`zlar. *Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish tarmog`i.*

**IMPORTANT FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF THE ACTIVITY OF SMALL
BUSINESS SUBJECTS IN PROVIDING A COMPETITIVE ENVIRONMENT IN THE
CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERALIZATION**

Nematova Shakhlo Egamgamberdievna

teacher of the Department of Economics and Service, Fergana State University

Abstract. *This article describes the role of small business and private entrepreneurship in the national economy, its share in national production, the main directions and development trends of small business and private entrepreneurship under the influence of the state.*

Keywords. *Small business, private entrepreneurship, national economy, competitiveness, digital economy, production network.*

Bugungi kundagi globallashtirish hamda iqtisodiyotning tobora integratsiyalashib borishi sharoitida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish obyektiv zarurat kasb etgan masalalardan biriga aylandi. Ushbu masalalarni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Prezident SHavkat Mirziyoev Oliy Majlisga murojaatnomasida "Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarini mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi

shart. Kerak bo'lsa, xorijdagi yetakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o'zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug'dirib berishimiz lozim",- deb ta'kidlaganlar. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da 29-maqсад sifatida tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga etkazish belgilangan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Aholining bandligi va daromadlarini ko'payishi kambag'allik darajasini kamayishiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatida har bir shaxs farovon hayot kechirishni, kam-ko'stsiz turmush darajasida bo'lishimizni, baxtli-saodatli hayot kechirishni orzu qiladi va xaqli hisoblanadi. Bunda oilaning turmush darajasini farovonligi olayotgan daromadlar bilan ehtiyojlarni qoplash darajasiga bevosita bog'liqdir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, oilalar mustahkamligi va farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish orqali har bir oilaning moddiy farovonligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotganligi bugun o'z natijalarini bermoqda. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator farmon va qarorlarda fuqarolarning ishbilarmonlik salohiyatini namoyon etishi uchun qulay sharoitlar yaratilishi barobarida soliq tizimida ham ko'pgina imtiyozlar berilgani muhim ahamiyatga egadir. Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati 3 yil mobaynida rejali soliq tekshiruvidan o'tkazilmasligi belgilab qo'yildi. Ishlab chiqarish sur'atlarining barqaror o'sishi va rentabelligini ta'minlayotgan tadbirkorlik subyektlarining soliq sohasida tekshirilmasligi ham ularning yanada erkin faoliyat yuritishlariga zamin yaratdi. 2022-yil 1-sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklari bundan mustasno) 571 332 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 43 479 taga ko'p, o'sish sur'ati 108,2 foizni tashkil etdi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat asosiy iqtisodiy tarmoqlardagi ulushi YAIMda- 51,8 foizni, sanoatda- 25,9 foizni, qishloq xo'jaligida -95,3 foizni, investitsiyada - 47,6 foizni, qurilishda- 71,6 foizni, chakana savdo -79,4 foizni, xizmatlar -48,4 foizni, yuk tashish-46,6 foizni, yuk aylanmasi -71,1 foizni, yo'lovchi tashish- 93,2 foizni, yo'lovchi aylanmasi- 95,9 foizni, eksport- 29,5 foizni, import 49,4 foizni tashkil etgan.

2022- yil yakunlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan 429 292,7 mlrd. so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 51,8 % i yaratilgan. Shundan 46,6 % i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 11,0 % i sanoat, 9,5 % i qurilish tarmoqlari va 32,9 % i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

Davlatimiz rahbari 2022 yil avgust oyida tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqatida biznes muhiti yaxshilangani natijasida o'tgan bir yil davomida tadbirkorlar tomonidan 55 mingdan ortiq biznes uchun binolar qurilgan. Tushumlari 1 million dollardan oshgan tadbirkorlik sub'ektlari soni 5 mingtaga ko'payib, 26 mingtaga yetgani. Yana ming nafari tovar aylanmasini 1 milliondan 10 million dollargacha yetkazgan, 220 nafarining tushumlari esa 100 million dollarga yetgan. Eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingta bo'lgan, umumiy eksport hajmi 30 foizga ko'payganini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan band qilish va daromadlarini oshirish bilan birga yurtimiz iqtisodiyotidagi ulushi yanada ko'payishi, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlik faoliyati erkinligi va ko'lamini yanada oshirish, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish va mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni ko'paytirishda kichik biznes sub'ektlarining faol ishtirok etishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, kambag'allikni yuzaga kelishi sabablaridan bo'lgan ishsizlik kamaytirish va aholi daromadlarini ko'paytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati muhim omillardan biri hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda kichik biznes sohasining rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. Milliy iqtisodiyotning barqaror yuqori sur'atlarda yuksalishi va tobora ortib borayotgan mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlashda kichik biznes o'ziga xos vazifalarni bajarmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida ish bilan bandlikning egiluvchan shakllari - qisman ish bilan bandlik, ish joyini taqsimlash, moslashuvchan ish grafigi, egiluvchan va virtual ish joyi iqtisodiy faol aholini munosib ish bilan ta'minlashning samarali yo'li bo'lib, u ish beruvchilarga iqtisodiy vaziyat, bozor kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarishning yo'nalishini, xodimlarning soni va tarkibini qisqa muddatda o'zgartirishga yordam beradi. Mamlakatimizda kichik biznesni tashkil etish va kambag'allikni qisqartirish uchun quydagi yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari sonini aholi soniga mutanosib holatda tashkil etish, rivojlangan davlatlar ko'rsatkichlariga yaqinlashish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bandlikni ta'minlash;

- hayot uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarning muayyan doirasini qondira olmaydi aholi qatlamini malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, o'qitish, qayta tayyorlash, hunar o'rgatish;

-tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha islohotlar olib borish;

-o'zini-o'zi band qilish loyihalarini rag'batlantirish va jalb qilish;

-ijtimoiy xizmatlardan imtiyozlar berish.

O'zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholining daromadlilik darajasini oshishi, aholini yashash farovonligi yaxshilanishi, sog'lom

turmush tarzini yuzaga kelishi va boshqa bir qancha ijobiy omillarga ta'sir etib, o'z navbatida kambag'allik darajasini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili (biznes ombudsman)ni tashkil etilganligi ular faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ulushini keskin ortishida namoyon bo'lmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishning samarali mexanizmini joriy etish orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

- aholining ahamiyatli qismini ish bilan bandligi ta'minlanadi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat eksport xajmidagi ulushini ortishiga xizmat qiladi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni faoliyatida yangi texnika va texnologiyalarni joriy etiladi;
- pirovardida aholining turmush darajasini yanada oshirishga erishiladi.

REFERENCES:

34. AXUNOVA, O. E., & NEMATOVA, S. E. (2021). LABOR MARKET PROBLEMS IN UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF COVID-19 PANDEMIC. *GLOBUS*, 7(8), 21-24.
35. Нематова, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда энгил саноат тармоқларининг ривожланиши. *Scientific progress*, 2(2), 607-615.
36. Ergashovna, A. O., & Egamberdievna, N. S. (2022). The role of human capital in economic development. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 100-106.
37. Nematova, S. (2022). Structural changes in the innovation-investment entrepreneurship of the economy of the region. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(10), 184-187.
38. SE Nematova, IIO Usmonaliyev.O 'ZBEKISTONDA BANKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION XIZMAT TURLARINI JORIY ETISH YO'LLARI. *Academic research in educational sciences* 4 (1), 5-10
39. S Nematova. Use of Intellectual Property Objects in the Process of Forming the Innovation Environment of the Cluster. *Miasto Przyszłości* 28, 448-452.
40. Нематова, Ш. Э., Тухтасинова, С. Д. К., & Тоиржонова, Ш. Ш. К. (2022). ИЗУЧЕНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *CETERIS PARIBUS*, (2), 32-35.

41. Ш Нематова. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ АСОСИЙ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Интернаука, 28-29
42. АО Ergashovna, NS Egamberdievna, SR Abdurahmonovich. The Current State of the Cocktail Market in Uzbekistan JournalNX 7 (03), 87-91
43. Маннопова, М. С. (2018). Turizm yo`nalishida ta`lim berishning o`ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти халқаро илмий-амалий конференция материаллари*, 1(6), 307-310.
44. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Европа Иттифоқи Erasmus+ дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёш аҳолини ўқитиш ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори*, 1(5), 150-151.
45. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери – истиқболли иқтисодиётнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришнинг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами. Андижон*, 1(7), 106-109.
46. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК. г.Москва*, 1(9), 23-25.
47. Маннопова, М. С. (2020). Фарғона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фарғона вилоятини инновацион ривожлантириш: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари Фарғона*, 1(6), 124-127.
48. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг беқиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси*, 1(1), 44-47.
49. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик йўналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Biznes-эксперт*, 1(6), 48-52.
50. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).
51. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
52. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовощной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом*, (16), 175-180.

53. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараёнида мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум*, 10, 89.
54. Mannopova, M. S. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).
55. Маннопова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ-ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
56. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje*, 29, 117-120.
57. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(11), 106-109.
58. Mannapova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 1126-1129.
59. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодоовощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.
60. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.
61. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида мева-сабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.
62. Маннопова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.
63. Sultonbekovna, M. M., & Shuxratovich, A. S. (2023). О 'ZBEKISTON QISHLOQ XO 'JALIGIDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 39-45.
64. Sultonbekovna, M. M. (2023). OZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 25-31.

65. Sul-ton-bekov-na, M. M., & Esonov-na, A. S. (2023). O 'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 58-64.

66. Sul-ton-bekov-na, M. M. (2023). MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERI KORXONALARI FAOLIYATIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Journal of new century innovations*, 23(3), 18-24.